

O'QISH VA TINGLASH ORQALI JURNALISTLAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH (INGLIZ TILI MISOLIDA)

Abdujabarova Kamola Xusniddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi,
<https://orcid.org/0009-0005-2601-0850>
Science ID: MTN-0625-0017
DOI: 10.5281/zenodo.22789200

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada bo'lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi nutqiy ko'nikmalarini o'qish va tinglab tushunish faoliyati orqali rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ingliz tilidagi autentik media matnlari, yangiliklar, intervyular, reportajlar, podkastlar va videomateriallardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. O'qish va tinglashga asoslangan topshiriqlarning talabalarining lug'at boyligi, talaffuzi, axborotni tahlil qilish, asosiy g'oyani aniqlash hamda fikrini og'zaki ravishda aniq va izchil ifodalash ko'nikmalariga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak jurnalistlar, nutqiy ko'nikmalar, autentik media materiallari, kommunikativ kompetensiya, kasbiy muloqot

Bugungi globalashuv, axborot texnologiyalarining taraqqiyoti va xalqaro media aloqalarining kengayishi jurnalistlarning xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini mukammal egallashini kasbiy faoliyatning muhim talabiga aylantirmoqda. Ingliz tilining jahon axborot makonidagi yetakchi mavqeyi jurnalistlarga xorijiy manbalardan foydalanish, voqelikni turli yondashuvlar asosida yoritish, xalqaro mutaxassislar bilan fikr almashish va global yangiliklarni tezkor tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu bois jurnalistika talabalariga ingliz tilini o'rgatish jarayoni faqat grammatik hamda leksik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmay, ularning kasbiy nutqiy malakalarini takomillashtirishga qaratilishi zarur.

Jurnalistning nutqiy mahorati axborotni to'g'ri, ravon, mantiqan izchil va auditoriyaga mos tarzda yetkazish layoqatida namoyon bo'ladi. Bunday mahoratni rivojlantirishda o'qish va tinglab anglash asosiy retseptiv faoliyat turlari sifatida muhim o'rin tutadi. O'qish davomida talabalar media matnlarining mazmuni, kompozitsion tuzilishi, uslubiy belgilari va sohaviy terminologiyasini o'zlashtiradilar. Tinglash esa ularni tabiiy nutq tezligi, talaffuz me'yorlari, intonatsiya, urg'u hamda turli vaziyatlarda qo'llaniladigan nutqiy birliklar bilan tanishtiradi. Natijada retseptiv faoliyat orqali egallangan til va mazmunij tajriba og'zaki nutqni shakllantirishning muhim manbayiga aylanadi.

Bo'lajak jurnalistlarning kasbiy faoliyati xabarlar, tahliliy materiallar, intervyular, reportajlar, brifinglar, matbuot konferensiyalari va audiovizual kontentni qabul qilish, qayta ishlash hamda

auditoriyaga yetkazish bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ular ingliz tilidagi materialdan asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarni ajratish, manbaning ishonchligini tekshirish, muallif munosabatini anglash, turli xabarlarini qiyoslash va olingan axborotni og'zaki tarzda qayta bayon qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim. Ushbu malakalarni o'qish va tinglash jarayonlarini gapirish faoliyati bilan uyg'unlashtirish orqali samarali rivojlantirish mumkin.

S.Krashenning tushunarli nutqiy material haqidagi konsepsiyasiga ko'ra, o'rganuvchining mavjud bilimidan biroz yuqori, ammo kontekst vositasida tushunilishi mumkin bo'lgan material tilni o'zlashtirish jarayonini jadallashtiradi. M. Longning interaktiv nazariyasida tushunarsiz birliklarni aniqlashtirish, savollar orqali mazmunni ochish va o'zaro muloqot qilish muhim omil sifatida baholanadi. M. Swainning nutqiy mahsulot yaratish konsepsiyasi esa qabul qilingan ma'lumotni gapirish yoki yozish orqali qayta ifodalash til ko'nikmalarini mustahkamlashini asoslaydi. Shunga ko'ra, o'qilgan xabar yoki tinglangan reportaj yuzasidan munozara, sharh, intervyu, xulosa va qisqa yangilik tayyorlash talabalarining retseptiv hamda produktiv nutq faoliyatini o'zaro bog'liq holda rivojlantiradi [3, 28-b.].

D.Buckingham media materiallariga oddiy axborot manbasi emas, balki tanqidiy nuqtayi nazardan o'rganiladigan ijtimoiy-madaniy mahsulot sifatida yondashish zarurligini qayd etadi. J.Potter esa mediasavodxonlikni turli mazmundagi xabarlarini qabul qilish, tahlil etish, baholash va yaratishga xizmat qiluvchi bilim hamda malakalar majmui sifatida tavsiflaydi. Ushbu fikrlar jurnalistlarning ingliz tilidagi

nutqini rivojlantirishda til ko'niklari bilan bir qatorda, axborot manbasi, haqqoniyligi, xolisligi va auditoriyaga ta'sirini baholash qobiliyatini ham shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Bo'lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish xorijiy til metodikasi, kommunikativ tilshunoslik va media ta'limi doirasida o'rganilgan. D.Hymes kommunikativ kompetensiyani til birliklarini grammatik jihatdan to'g'ri va ijtimoiy vaziyatga mos qo'llash qobiliyati sifatida izohlagan. M. Canale va M.Swain uning grammatik, sotsiolingvistik hamda strategik komponentlarini ajratgan bo'lsa, L. Bachman kommunikativ til qobiliyatini tashkiliy va pragmatik kompetensiyalar birligi sifatida tavsiflagan [6, 109-b.].

Tinglab tushunishning nazariy va metodik jihatlarini J.Field, M.Rost, L.Vandergrift va C.Goh tadqiqotlarida, media ta'limi masalalari esa D.Buckingham, J. Potter hamda R.Hobbs asarlarida yoritilgan [7, 180-b.].

O'zbek olimlaridan J.Jalolov nutq faoliyatining o'qish, tinglash, gapirish va yozish turlarini integrativ rivojlantirish zarurligini asoslagan. G'.Hoshimov va I.Yoqubov kommunikativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish masalalarini tadqiq etgan. K. Abdujabborova esa yangilik matnlaridan talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlarini yoritgan [2, 71-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology): Mazkur tadqiqot o'qish va tinglash faoliyatlarini integratsiyalash orqali bo'lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi nutqini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ, kompetensiyaviy, kasbiy yo'naltirilgan, integrativ va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar ingliz tilidan kasbiy axborotni qabul qilish, tahlil etish va nutqiy faoliyatda qayta ifodalash vositasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, tavsiflash, qiyoslash va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Kommunikativ kompetensiya, o'qish, tinglab tushunish, autentik materiallar va kasbiy yo'naltirilgan ta'limga oid ilmiy-metodik manbalar o'rganilib, jurnalistika talabalari uchun zarur nutqiy ko'nikmalar hamda mashqlar tizimi belgilandi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar media materiallarining asosiy mazmuni va g'oyasini aniqlash, muhim faktlarni ajratish, sabab-oqibat munosabatlarini belgilash, muallif pozitsiyasini anglash va faktning fikrdan farqlashga yo'naltirildi [8, 129-b.]. Yozma yangiliklar va videoreportajlarni qiyoslashga asoslangan integrativ topshiriqlar axborotni tekshirish, taqqoslash, umumlashtirish hamda og'zaki qayta ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Mashg'ulotlar individual, juftlik va kichik guruh shakllarida tashkil etildi. Talabalarining natijalari matn va audiomaterial mazmunini anglash, muhim

axborotni ajratish, kasbiy leksikani qo'llash, fikrni mantiqiy va ravon ifodalash hamda guruh muloqotda faol qatnashish mezonlari asosida baholandi. Baholash vositalari sifatida testlar, mazmunni qayta bayon qilish, yozma sharh, og'zaki taqdimot, intervyu va reflektiv savollardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results):

Tadqiqot natijalari autentik yangiliklar, intervyular, videoreportajlar va podkastlardan foydalanish bo'lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanini ko'rsatdi. Mazkur materiallar talabalarining kasbiy terminologiyani o'zlashtirishi, asosiy axborotni ajratishi, media xabarlarini tanqidiy tahlil qilishi hamda o'z fikrini ingliz tilida izchil ifodalashiga yordam berdi.

Dastlab talabalarining har bir notanish birlikni tarjima qilishga intilishi matnning umumiy mazmunini anglashni qiyinlashtirdi. Ko'z yugurtirib o'qish, muayyan axborotni izlash, so'z ma'nosini kontekst orqali aniqlash hamda asosiy va ikkilamchi ma'lumotlarni farqlash mashqlari natijasida ularning o'qish tezligi va mazmunni tushunish darajasi yaxshilandi. Turli manbalardagi xabarlarini qiyoslash esa fakt va fikrni farqlash, muallif pozitsiyasi hamda manba ishonchliligini baholash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Tinglash jarayonida tabiiy nutq sur'ati, turli aksentlar va notanish terminlar asosiy qiyinchiliklar sifatida aniqlandi. Materialni bosqichma-bosqich tinglash, tayanch so'zlar bilan oldindan ishlash va vizual vositalardan foydalanish natijasida talabalar reportaj hamda intervyularning asosiy g'oyasi, muhim faktlari va so'zlovchi munosabatini aniqroq anglay boshladilar. O'qish va tinglashni integratsiyalash talabalarda axborotni qiyoslash, tekshirish, umumlashtirish va baholash malakalarini shakllantirdi. Qabul qilingan axborot asosida sharh yozish, intervyu tuzish, munozara o'tkazish va qisqa reportaj tayyorlash ularning og'zaki hamda yozma nutqiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bunda talabalarining til darajasiga mos differensial topshiriqlar, tayanch iboralar va terminologik lug'atlardan foydalanish zarurligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):

O'qish va tinglash faoliyatlarini o'zaro uyg'unlashtirish bo'lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi nutqiy kompetensiyasini kompleks rivojlantiradi. Ushbu faoliyatlar xorijiy tildagi axborotni qabul qilish bilan birga, uni saralash, tahlil etish, baholash va mustaqil ravishda qayta ifodalash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

O'qish jarayonida ko'z yugurtirib o'qish, kerakli ma'lumotni izlash va tanqidiy tahlil strategiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Tinglashda esa mazmunni oldindan taxmin qilish, tayanch so'zlarni aniqlash, materialni bosqichma-bosqich tinglash va axborotni qayta bayon etishga asoslangan topshiriqlar samarali hisoblanadi.

Materiallar talabalarining til darajasi, kasbiy ehtiyoji va mavjud bilimlariga muvofiq tanlanishi, topshiriqlar esa soddadan murakkabga tamoyili asosida tuzilishi lozim. Autentik media materiallarini

gapirish va yozish faoliyatlari bilan integratsiyalash bo'lajak jurnalistlarning lingvistik, pragmatik, media va kasbiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali metodik asosini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdujabborova K. Communicative Competence Development in English Language Education: Contemporary Directions // Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2026. – T. 5. – №. 1. – C. 55-61.
2. Abdujabborova K. Yangilik matnlari asosida talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli // Til va adabiyot.uz. – 2025. – № 15. – B. 71-73.
3. Field J. Listening in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 366 p.
4. Grabe W. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 467 p.
5. Vandergrift L., Goh C.C.M. Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. – New York: Routledge, 2012. – 315 p.
6. Abdujabborova K. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida ingliz tilining o'rni va uning malaka darajasi talablari // Ilm-fan. – 2025. – T. 3. – № 21. – B. 17-19. – <https://doi.org/10.5281/zenodo.15621220>
7. Abdujabborova, K. Abdujabborova K. A news-text-based model for developing students' English communicative competence // Academic Research in Modern Science. – 2026. – T. 5. – № 20. – B. 109-113. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20701712>
8. Abdujabbarova K. Talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda o'qish va tinglab tushunish metodikasidan foydalanishning innovatsion usullari. – 2026. – 16-fevral. – B. 180-183. – <https://doi.org/10.5281/zenodo.18662816>
9. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 4th ed. – Harlow: Pearson Longman, 2007. – 448 p.
10. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2011. – 232 p.
11. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J.B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269-293.